Adliya vazirligi hay’at majlisining
2023-yil 23-yanvardagi 4/23-son bayoniga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo‘ljallangan**
**ISH REJASI***

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA** | | | | | | |
| 1. | Adliya organlari va muassasalari tomonidan 2022-yil davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash.<br>Natijasini hay’at majlisida muhokama qilish. | yanvar | A. Ro‘ziyev vazirlik tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari | Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko‘ra hay’at Majlisi har chorakda o‘tkazilib, unda asosiy yo‘nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi. | Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish. | 1 |
| 2. | Adliya vazirligining “MinJust HR” avtomatlashtirilgan tizimi orqali xodimlarga yillik asosiy mehnat ta’tillarni avtomatlashtirilgan tarzda berish faoliyatini yo‘lga qo‘yish.<br>Bunda, tizim orqali ta’tillar jadvalini shakllantirish, kelishish va tasdiqlash hamda xodimlarga mehnat ta’tilini berish, boshqa muddatga ko‘chirish va bu bo‘yicha tegishli buyruqlarni avtomatik rasmiylashtirish imkoniyati yaratiladi. | mart | Sh. Kuchkarov, K. Xo‘jayev | Mehnat qonunchiligiga muvofiq, ta’til berish vaqti haqida xodimni ta’til boshlanishidan kamida o‘n besh kun oldin xabardor qilish, ta’tillarni ta’tillar jadvalida belgilangan vaqtda berish, ta’tildan foydalanishning jadvalda belgilangan vaqtini xodim bilan ish beruvchining kelishuviga binoan o‘zgartirilishini rasmiylashtirishda muammolar mavjud. | Xodimlarning mehnat ta’tilidan o‘z vaqtida foydalanishini ta’minlash, ularning ta’til olish muddatlari va foydalanilmay qolgan ta’til kunlari hisobini avtomatik tarzda yuritish. | 4 |
| 3. | Toshkent shahar adliya boshqarmasi faoliyatini kompleks tekshirish.<br>Natijasini hay’at majlisida muhokama qilish. | mart | Vazirning buyrug‘iga muvofiq | Adliya boshqarmasining faoliyati vazirlik tomonidan so‘nggi uch yil mobaynida kompleks tekshirilmagan. | Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish. | 3 |
| 4. | Adliya organlari va muassasalarida HR-menejment tizimi doirasida ishga yangi qabul qilingan xodimlarning ish jarayoniga tez va samarali ko‘nikish/moslashishini ta’minlab berish (adaptatsiya) tizimini joriy qilish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va pilot loyihani joriy etish. | aprel | Sh. Kuchkarov | HR-menejment sohasida xorijiy mutaxassislar tomonidan o‘tkazilgan tahlillar ishga yangi qabul qilingan xodimlarning 4 foizi birinchi kundan keyin yangi ishini tark etishini, 50 foizi esa to‘rt oy ichida tark etishini ko‘rsatgan. | Adliya organlari va muassasalarida ishga yangi qabul qilingan xodimlarning ish jarayoniga, shart-sharoitlarga va yangi mehnat jamoasiga tez moslashishini ta’minlab, xodimlarning ish samaradorligini oshirish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5. | Adliya organlari va muassasalari tomonidan 2023-yilning 3 oyi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash.<br>Natijasini hay’at majlisida muhokama qilish. | aprel | A.Ro‘ziyev vazirlik tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari | Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko‘ra hay’at Majlisi har chorakda o‘tkazilib, unda asosiy yo‘nalishlarga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi. | Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish. | 1 |
| 6. | Toshkent viloyat adliya boshqarmasi faoliyatini kompleks tekshirish.<br>Natijasini hay’at majlisida muhokama qilish. | may | Vazirning buyrug‘iga muvofiq | Adliya boshqarmasining faoliyati vazirlik tomonidan so‘nggi uch yil mobaynida kompleks tekshirilmagan. | Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash hamda tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish. | 3 |
| 7. | Farg‘ona, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari, shahar va tumanlari hokimliklarida “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ijrosini o‘rganish. | may | Vazirning buyrug‘iga muvofiq | Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko‘ra hay’at Majlisi har chorakda o‘tkazilib, unda asosiy yo‘nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi. | Mahalliy davlat hokimiyati organlarida arxiv hujjatlarining saqlanishi, hisobi yuritilishi, davlat arxivlarga topshirilishi holati o‘rganilib, tizimli qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish | 3 |
| 8. | Adliya organlari va muassasalarida energiyani tejovchi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish. | iyun | Z.Tulyaganov, hududiy adliya organlari rahbarlari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9 sentabrdagi “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-220-sonli Farmoni asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-sentabrdagi 518-sonli qarori ijrosini ta’minlash. | Elektr hamda issiqlik energiyasi xarajatlarini kamida 30 foizga qisqartirish. | 4 |
| **II. NORMA IJODKORLIGIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH HAMDA TARTIBGA SOLISH TA’SIRINI BAHOLASH SOHASIDA** | | | | | | |
| 9. | Dori vositalari va tibbiy buyumlarda, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ularning ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati hamda ularni saqlash shartlari buzilganligi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish masalasini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish hamda natijasi yuzasidan | may | R. Davidova | Dori vositalari va tibbiy buyumlar, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarining ishlab chiqarilgan sanasi va yaroqlilik muddati ko‘rsatilmaganligi yoki yaroqlilik muddati o‘tganligi sababli fuqarolarning sog‘lig‘iga jiddiy ziyon yetkazilishi holatlari yuzaga kelishi mumkin. | Muddati o‘tgan hamda tegishli ishlab chiqarilgan muddatlari (ma’lumotlari) ko‘rsatilmagan tovarlarni iste’moldan chiqarish hamda mazkur mahsulotlar orqali fuqarolar sog‘lig‘iga yetkaziladigan zararlarni oldini olish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritish. | | | Bunda, mazkur holatlarni aniqlagan fuqarolarga rag‘batlantirish choralarini qo‘llanilishi tadbirkorlik subyektlarining mas’uliyatini oshirishga hamda jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishiga olib keladi. | | |
| 10. | Mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish hamda nogironlikni belgilash bilan bog‘liq tartiblarni soddalashtirish va takomillashtirish maqsadida amaldagi qonunchilikni tahlil qilish va huquqni qo‘llash amaliyoti hamda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | may | M. Nazarov | Mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish hamda nogironlikni belgilash bilan bog‘liq amaldagi tartib-taomillarda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzaga kelishi uchun sharoit va byurokratik to‘siqlar mavjud.<br>Shuningdek, mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish hamda nogironlikni belgilash bilan bog‘liq amaldagi tartib-taomillar davlat byudjetidan ortiqcha va asossiz xarajatlarni yuzaga keltirmoqda. | Mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish hamda nogironlikni belgilash bilan bog‘liq amaldagi tartib-taomillardagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzaga kelishi uchun sharoit va byurokratik to‘siqlarni bartaraf qilish. | 3 |
| 11. | Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Transport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish hamda norma ijodkorligi faoliyatini o‘rganish.<br>O‘rganish natijasi bo‘yicha tegishli ta’sir choralari ko‘rish. | may-iyun | M. Nazarov | 2021-yilning 1-aprelidan – 2022-yilning 1-oktyabrigacha bo‘lgan davrda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarning 324 tasi TSTB doirasiga tushsa-da, ularning 193 tasi yoki 60 foizi baholashdan o‘tkazilmagan, baholashdan o‘tkazilgan 129 ta loyihalarning TSTB hisobotlari esa talab darajasida to‘ldirilmagan.<br>Shuningdek, 2022-yilning 9 oyi davomida vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan 339 ta loyihaga korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha cheklist ilova qilinmagan. Adliya vazirligiga tomonidan ko‘rib chiqilgan 259 ta loyihada 402 ta korrupsiyaviy omillar aniqlangan. | Vazirlik va idoralar tomonidan qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini tartibga solish ta’sirini baholash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilish faoliyatida yo‘l qo‘yilayotgan tizimli xato va kamchiliklarni bartaraf etish, ularga metodik yordam ko‘rsatish orqali norma ijodkorligi faoliyatining sifatini oshirish. | 3 |
| 12. | Daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarini muhofaza qilish bo‘yicha milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash. | iyun | D. Xalilov | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PF–46-son Farmoniga asosan, davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan. | Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning ko‘lamini kengaytirish. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi 93-son qarori bilan Davlat oʻrmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining roʻyxati tasdiqlangan.<br>Biroq, mazkur roʻyxatga soʻnggi yillarda xorijiy davlatlardan olib kelib ekilayotgan ba’zi qimmatbaho daraxt navlari kiritilmagan.<br>Masalan, Yapon saforasi. Bu daraxt Oʻzbekiston iqlimiga mosligi bois, oxirgi yillarda mamlakatimiz hududida koʻp ekilayotgan xushmanzara, noyob va qimmatbaho daraxtlardan hisoblanadi.<br>Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish doirasida xorijiy davlatlardan qimmatbaho daraxt navlari olib kelib ekilmoqda.<br>Biroq, mazkur daraxtlar va butalar ushbu roʻyxatga kiritilmaganligi bois, ushbu daraxtlarga nisbatan moratoriy tatbiq etilmaydi. Bu esa oʻz navbatida roʻyxatda kiritilmagan qimmatbaho daraxt navlarini muhofaza qilish bilan bogʻliq muammolarni keltirib chiqaradi. | | |
| **III. HUQUQNI QOʻLLASH AMALIYOTINI OʻRGANISH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH, YURIDIK TA’LIM VA SUD-EKSPERTIZA SOHASIDA** | | | | | | |
| 13. | Idoralararo kollegial organlar faoliyati samaradorligini tahlil qilish hamda natijasi boʻyicha ushbu organlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | yanvar | N. Rustambekov hududiy adliya organlari rahbarlari | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-apreldagi PQ–3666-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 10-bandi boʻyicha. | Idoralararo kollegial organlar faoliyati samaradorligini oshirish. | 2 |
| 14. | Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 285-son qarori bilan tasdiqlangan Ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi boʻlgan, kam ta’minlangan, farzandlarini toʻliqsiz oilada | yanvar-fevral | Oʻ. Nazarov hududiy adliya organlari rahbarlari | Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda oʻrganish va monitoring oʻtkazilmagan.<br>Shuningdek, ushbu yoʻnalishda adliya organlariga fuqarolarning huquqlari | Ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi boʻlgan, kam ta’minlangan, farzandlarini toʻliqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablari ijrosini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | | | buzilayotganligi yuzasidan ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda. | sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berilishida qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlanadi hamda amaliyotdagi muammolar bartaraf etiladi. | |
| 15. | Yuridik xizmatlar ko‘rsatish markazlari xodimlarining mehnat qonunchiligi, shartnoma huquqi va davlat xaridlari sohasidagi qonunchilik bo‘yicha huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan qisqa muddatli masofaviy o‘quv kurslarini tashkil qilish. | yanvar-mart | Sh. Rabiyev<br>D. Umarov<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Markazlarga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun kelib tushayotgan qarorlar loyihalarining 70-80 foizini mehnat hamda shartnomaviy-huquqiy munosabatlarga doir hujjatlar tashkil qiladi. Ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda ba’zi hollarda turli xil talqinlar vujudga kelayotganligi sababli, aynan bir turdagi loyihalar bo‘yicha turli xil xulosalar berish holatlariga yo‘l qo‘yilmoqda. | Davlat organlari va tashkilotlarida qonuniylikni ta’minlash, ularning qarorlari va buyruqlari loyihalarini sifatli huquqiy ekspertizadan o‘tkazish. | 4 |
| 16. | Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari tomonidan:<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;<br>qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi;<br>huquqni qo‘llash (shu jumladan, inson huquqlari va intellektual mulk sohasida) amaliyoti;<br>ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati;<br>tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyatini;<br>huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | fevral | N. Rustambekov<br>N. Tillyayev<br>N.Muhammadiyev<br>O‘.Nazarov<br>J.Niyazov<br>(Ma’muriy)<br>U.Sodikov<br>U.Abdullayev<br>M.Nazarov<br>R. Davidova<br>D.Xalilov<br>F.Saliyev<br>D.Umarov<br>S.Qilichev<br>Sh.Yuldasheva<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF–5997-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan 2020-2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish maqsadli ko‘rsatkichlarning 6-bandi ijrosini ta’minlash. | Oila va xotin-qizlar sohasi faoliyatini o‘rganish orqali mazkur sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 17. | Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari hamda sud xodimlari uchun sud ekspertizalarini o‘tkazishga zarur bo‘lgan tadqiqot obyektlarini yig‘ish, saqlash va taqdim etish usullari to‘g‘risida reja-grafikka binoan manzilli o‘quv seminarlar (vebinarlar)ni tashkil qilish. | fevral-iyun | J. Nuritdinov<br>A. Xalilov<br>Sh. Yuldasheva<br>S. Urinbayeva | Ekspertiza tayinlash haqidagi qaror yoki ajrimlari va ularga ilova qilingan hujjatlar qonunchilik talablariga to‘liq rioya qilinmaganligi, ekspertizasi predmetiga taalluqli ma’lumotlarga taqdim qilinmaganligi, qo‘shimcha yoki takroriy sud ekspertizasi tayinlash qoidalariga to‘liq rioya qilinmaganligi, qayta sud ekspertizasi tayinlash to‘g‘risidagi qaror (ajrim)da uni tayinlashning sabablari va asoslari to‘liq ko‘rsatilmaganligi, qo‘shimcha materiallar taqdim etish to‘g‘risidagi sud ekspertining iltimosnomalari to‘liq qanoatlantirilmaganligi va boshqa sabablarga ko‘ra 2022-yilning 9 oyligi davomida 3658 ta ekspertiza materiallari ekspertiza o‘tkazilmasdan ijrosiz qaytarilgan va bu ko‘rsatgich 2021-yilning xos davriga nisbatan 610 taga oshgan. | Sud, surishtiruv va tergov organlari tomonidan tayinlangan sud ekspertizalarining ijrosiz qaytarish holatlarini kamaytirish hamda mazkur tashkilotlar xodimlarning sohaga oid huquqiy savodxonligini oshirish | 2 |
| 18. | Quyidagi sohalarda davlat xizmatlari ko‘rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish (birlashtirish) va ularning sonini maqbullashtirish:<br>jismoniy shaxslarga turli ma’lumotnomalar berish;<br>malaka sertifikatlarini berish.<br>Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | mart | J.Niyazov<br>(Ma’muriy) | Hozirda 30 ga yaqin ma’lumotnomalar va 40 dan ortiq turli sohalarda jismoniy shaxslarga turli malaka sertifikatlarini beriladi. Mazkur malaka sertifikatlarini berish tartibotlari amalda o‘xshash bo‘lib, ularni yaxlit hujjatda tizimlashtirish zarurati mavjud. | Jismoniy shaxslar foydalanishi uchun qulay normativ baza yaratish hamda ularning davlat xizmatlari ko‘rsatishda bir xil huquqni qo‘llash amaliyotini ta’minlash. | 3 |
| 19. | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari bitiruvchi kurs o‘quvchilari uchun yirik va mayda biznes tashkilotlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar ishtirokida “**O‘rta professional yuridik kadrlar uchun mehnat bahori**” tadbirini har bir hududda o‘tkazish. | mart-may | J. Nuritdinov<br>I. Rustambekov<br>D. Umarov<br>Sh. Yuldasheva<br>S. Abdullayev<br>hududiy adliya organlari rahbarlari, | Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 705-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomda Yuridik texnikumlarda **ish bilan ta’minlangan bitiruvchilari** va oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan o‘quvchilari ulushi reytingning muhim qismi hisoblanadi. | Yuridik texnikumlarning bitiruvchilarini har tomonlama qo‘llab quvvatlash hamda ularning bandligini ta’minlash. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | yuridik texnikumlar rahbarlari | | | |
| 20. | “Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lgan ta’lim muassasalaridagi huquqiy ta’lim va fanga yaratilgan sharoitlar hamda o‘quv metodik jihatlarini tahlil qilish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli manfaatdor vazirlik va idoralarga taklif kiritish. | aprel-may | J. Nuritdinov<br>I. Rustambekov | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomning19-bandida Adliya vazirligiga yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta’minlash sohasida huquqiy ta’limning holatini tahlil qilish, uni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi yuklangan. | “Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lgan ta’lim muassasalaridagi huquqiy ta’lim va fanga yaratilgan sharoitlar hamda o‘quv metodik jihatlarini muvofiqlashtirish va takomillashtirish. | 2 |
| 21. | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini tashkil etilishini tahlil qilish.<br>Tahlil natijalariga ko‘ra sohani yanada takomillashtirish yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga takliflar tayyorlash. | aprel-iyun | J. Nuritdinov<br>I. Rustambekov<br>F. Saliyev<br>D. Xalilov<br>yuridik texnikumlar rahbarlari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomning19-bandida Adliya vazirligiga yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, yurisprudensiya sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni ta’minlash sohasida huquqiy ta’limning holatini tahlil qilish, uni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi yuklangan. | Yuridik texnikumlarning faoliyati tahlil qilinib, ularning yanada jozibadorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash. | 2 |
| 22. | Keng jamoatchilik vakillarini sud ekspertizasi to‘g‘risida dastlabki tushuncha va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida Sud ekspertizasi yuzasidan qo‘llanma ishlab chiqish va keng jamoatchilikka taqdim etish. | aprel-may | J. Nuritdinov<br>A. Xalilov | Keng jamoatchilikni sud ekspertiza sohasidagi bilimlari yetarli emasligi aholining huquq va manfaatlarini ta’minlashga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. | Keng jamoatchilikni sud ekspertiza sohasidagi mavjud bilimlarini yanada oshirish orqali, ularning o‘z huquq va erkinliklarini ta’minlashga ko‘maklashish. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 23. | O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari (tibbiyot muassasalari bundan mustasno) tomonidan:<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;<br>qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi;<br>huquqni qo‘llash (shu jumladan, inson huquqlari va intellektual mulk sohasida) amaliyoti;<br>ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati;<br>tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyatini;<br>huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish hamda Vazirlar Mahkamasiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | aprel-may | O‘.Nazarov<br>N.Rustambekov<br>N.Tillyayev<br>N.Muhammadiyev<br>J.Niyazov<br>(Ma’muriy)<br>U.Sodikov<br>U.Abdullayev<br>M.Nazarov<br>R.Davidova<br>N.Parpixo‘jayev<br>D.Xalilov<br>F.Saliyev<br>D.Umarov<br>S.Qilichev<br>Sh.Yuldasheva<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Fuqarolar tomonidan adliya organlariga sog‘liqni saqlash masalalari yuzasidan ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda. Shuningdek, ushbu sohadagi kamchiliklar va muammoli holatlar aholining haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.<br>Shu bilan birgalikda, mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o‘rganish va monitoring o‘tkazilmagan.<br>Bu esa, ushbu sohani kompleks o‘rganishni talab etadi. | Sohada inson huquqlarini himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi va jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati, huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta’minlash, ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmatlarini ko‘rsatish va boshqa holatlar o‘rganiladi. Sohadagi kamchilik va muammoli holatlar bartaraf etiladi va tegishli takliflar ishlab chiqiladi. O‘rganish natijalari bo‘yicha tegishli ta’sir choralari qo‘llaniladi. | 3 |
| 24. | Turizm va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatish sohasida mavjud bo‘lgan byurokratik tartib-taomillardagi (turistik yig‘imni undirish, sertifikatlashtirish, chet ellik turistlarni O‘zbekistonda bo‘lish tartiblarini) mavjud muammolarni tahlil qilish va natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | aprel-iyun | N.Tillyayev<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Turizm va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bir qator byurokratik tartibotlar mavjud. Xususan, har bir turistni “E-mehmon” axborot tizimiga ro‘yxatdan o‘tkazish, uzoq muddatga kelgan turistlarni ichki ishlar organlariga hisobga qo‘yish, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish talab etiladi.<br>Shuningdek, turistik yig‘imni undirish tartibi amalda mehmonxona xizmatlarining tannarxini va soliq yuki oshirishga va bu esa, mehmonxona xizmatidan haqiqatda foydalangan mijozlarning sonini yashirishga undamoqda. | O‘zbekistonning turistik jozibadorligi oshirish, turizm va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati uchun yanada qulay sharoit yaratish. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 25. | Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlaridagi sohani takomillashtirish, davlat boshqaruvini hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish, hududlarni raqamli transformatsiya qilish, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlarning bajarilishi holatini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish va kiritish. | may | N.Muhammadiyev<br>N. Rustambekov<br>N. Tillyayev<br>(Ma’muriy)<br>U.Sodikov<br>U.Abdullayev<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o‘rganish o‘tkazilmagan.<br>Shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha berilgan topshiriqlar ijrosi monitoringlar davomida amalda bajarilmaganligi holatlari ko‘plab aniqlanmoqda. | Sohaga oid qonunchilik hujjatlarining ijrosini muddatida va to‘liq bajarilish holati o‘rganiladi, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda ijrochilarga amaliy yordam ko‘rsatiladi.<br>Raqamli texnologiyalar sohasini takomillashtirish, davlat boshqaruvini hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish, hududlarni raqamli transformatsiya qilish, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar ijrosi tahlil qilinadi, natijasi yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi. | 3 |
| 26. | Davlat boshqaruvi tizimini funksional tahlil qilgan holda davlat boshqaruv organlarining funksiyalarini nodavlat sektorga o‘tkazish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | may | N. Rustambekov<br>N. Tillyayev<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF–5997-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan 2020–2024-yillarda adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish maqsadli ko‘rsatkichlarning 8-bandi ijrosini ta’minlash. | Byudjet yukini kamaytirish hamda xususiy sektorning tadbirkorlik faoliyat turlarini kengaytirish. | 3 |
| 27. | Atrof-muhitni, aholi salomatligini zararli shovqinlar va yoqimsiz hidlar ta’siridan muhofaza qilish sohasini tubdan takomillashtirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | may | N. Rustambekov | Atrof-muhitni, aholi salomatligini zararli shovqinlar va yoqimsiz hidlar ta’siridan himoya qilish mexanizmlari takomillashmagan. | Atrof-muhitni va aholi salomatligini zararli shovqinlar va yoqimsiz hidlar ta’siridan muhofaza qilish. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **IV. XALQARO HUQUQIY HAMKORLIK, HUQUQIY XIZMAT KO‘RSATISHNI TARTIBGA SOLISH, NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR VA HUQUQIY TARG‘IBOT SOHASIDA** | | | | | | |
| 28. | Lex.uz da joylashtirilgan Oliy Majlis palatalari va kengashlarining normativ-huquqiy tusga ega bo‘lmagan qarorlarini xatlovdan o‘tkazish.<br>Xatlov natijasida normativ-huquqiy tusga ega bo‘lmagan hujjatlarni alohida bo‘limga o‘tkazish va ularni turlari bo‘yicha (Mahalliy hokimiyat, Xalqaro, Texnik, Sud amaliyoti kabi ustunlar) ajratish. | fevral | F. Tojiyev | Lex.uz ga joylashtiriladigan Oliy Majlis palatalari va kengashlarining normativ-huquqiy tusga ega bo‘lmagan qarorlari (qonun loyihalarini ko‘rib chiqish kabi) kunlik chiqadigan yangi hujjatlar ro‘yxati (qonunchilikdagi yangiliklar)da asosiy qonunchilik hujjatlaridan foydalanishga to‘sqinlik qilayotganligi ayrim foydalanuvchilarning e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. | Lex.uz da kunlik chiqadigan yangi hujjatlar ro‘yxati (qonunchilikdagi yangiliklar)da normativ-huquqiy tusdagi hujjatlar chiqishini ta’minlash. | 2 |
| 29. | NNT sohasida byurokratik omillarni yanada qisqartirish doirasida nodavlat notijorat tashkilotlarining chet ellik shaxslardan pul mablag‘lari va mol-mulk olishni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan kelishish, jarayonni raqamlashtirish, shuningdek xalqaro grant loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha amaldagi tartibni qayta ko‘rib chiqish.<br>Natijasi bo‘yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | yanvar-fevral | Sh. Yakubdjanova | Bugungi kunda NNTlar tomonidan chet ellik shaxslardan pul mablag‘lari va mol-mulk olishni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan kelishish, shuningdek xalqaro grant loyihalarini amalga oshirish murakkablashtirilgan jarayon asosida amalga oshirilmoqda, natijada NNTlarning mazkur masala yuzasidan e’tirozlari vujudga kelmoqda. | Nodavlat notijorat tashkilotlarining xorijiy manbalardan pul mablag‘lari va mol-mulk olish, shuningdek xalqaro grant loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni soddalashtirish. | 4 |
| 30. | “Davlat xizmatlari — uydan chiqmasdan” rukni ostida my.gov.uz portali orqali onlayn formatda olib bo‘ladigan davlat xizmatlari haqida aholini keng xabardor qilib borish: videolavha, animatsion rolik, mutaxassislar sharhi, infografika-instruksiya shaklida. | yanvar-iyun | S. Urinbayeva<br>Davlat xizmatlari departamenti | Ijtimoiy tarmoqlarda Davlat xizmatlari markazlarida navbatlar ko‘pligi yuzasidan xabarlar uchrab turmoqda. | Davlat xizmatlari markazlarida navbatlar kamayadi. | 4 |
| 31. | “Adliya aralashgach”, “Adliya — bir oy davomida” va “Bir murojaat izidan” nomli lavhalar, reportajlar, videoroliklar tayyorlash va tarqatish. | yanvar-iyun | S.Urinbaeva<br>F.Tojiyev<br>Adliya organlari va muassasalari rahbarlari | Aholini adliya organlari faoliyati haqida ma’lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning Adliya organlari tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan huquqiy yordamlardan to‘laqonli foydalanmasligiga olib kelmoqda. | Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida targ‘ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish hamda shaxslarning huquqlarini himoya qilinishini ta’minlashga ko‘maklashish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 32. | Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy bilimlarni yuksaltirish maqsadida, “kurslar.huquqiyportal.uz” platformasida, davlat xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati hamda notarial munosabatlarga qaratilgan yangi onlayn kurslarni joriy etish. | mart | Sh.Yuldasheva<br>N.Parpixo‘jayev<br>D.Umarov<br>F.Tojiyev | Keyingi vaqtlarda aholi tomonidan asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali bepul ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishga qiziqish ortganligi, ayniqsa, iste’molchilarning huquqlari va bola huquqlariga oid savollar ko‘payganligi bois, portalda yangi kurslarni joriy qilish zarurati mavjud. | Aholining huquqiy savodxonligini oshirish, muayyan sohadagi qonunchilik hujjatlarini aholi o‘rtasida targ‘ibotini kuchaytirish. | 4 |
| 33. | Xorijiy davlatlarning xalqaro arbitraj va sudlarida O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini himoya qilish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish | may | B. Raximov | Tahlillar natijasiga ko‘ra, xalqaro arbitraj va xorijiy davlatlarning sudlarida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyati bevosita normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinmagan. Jumladan, manfaatdor vazirlik va idoralarning vakolatlari aniq belgilanmagan, ushbu sohadagi davlat organlarining o‘zaro hamkorligi talab darajasida emas, xalqaro arbitraj va xorijiy davlatlarning sudlarida davlat manfaatlarini himoya qilish faoliyatini moliyalashtirish manbalari va boshqa masalalar bo‘yicha qonunchilikda bo‘shliqlar mavjud. | Xalqaro arbitraj va xorijiy davlatlar sudlarida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish faoliyati samaradorligini yanada oshirish. | 2 |
| 34. | “Adolat” milliy huquqiy axborot Markazining faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganib, tahlil qilish.<br>Markaz faoliyatini yanada yaxshilash va takomillashtirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | fevral-mart | F. Tojiyev | Markaz o‘z faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadi.<br>Hozirda ushbu jarayon murakkab bo‘lib, shartnomalarni rasmiylashtirish va tuzish ko‘p vaqt talab etadi. | Markazning boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar bilan ishlash jarayonini soddalashtirish va osonlashtirish orqali uning faoliyati samaradorligini oshirish. | 2 |
| 35. | Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksini shakllantirish tartibini qayta ko‘rib chiqish orqali mazkur tizimni xalqaro tajriba asosida takomillashtirish.<br>Natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma hamda sohani takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | mart-may | Sh. Yakubdjanova | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi PF–6181-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2021 – 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida NNTlar faoliyatining ochiqlik indeksini joriy qilish masalasi nazarda tutilgan. | Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy va samarali mexanizmlar joriy qilish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 36. | "Fridrix Ebert" jamg'armasining O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi va "Soxnut" yaxudiy agentligining O'zbekistondagi filliali faoliyatini o'rganish.<br>Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish. | mart-iyun | Sh. Yakubdjanova | Mazkur nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmaganligi sababli ushbu tadbir ish rejaga kiritilmoqda. | Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash. Kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olish. | 3 |
| 37. | "Intilish" Respublika axborot-ta'lim markazi va "Yuksak salohiyat" jamoat birlashmasi faoliyatini o'rganish.<br>Natijasi bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rish. | mart-iyun | Sh. Yakubdjanova | Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati oxirgi 3 yilda o'rganilmaganligi sababli ushbu tadbir ish rejaga kiritilmoqda. | Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish. Kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olish. | 3 |
| 38. | Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat mulkidan imtiyozli asoslarda foydalanish bo'yicha mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni tahlil qilish, ushbu masala yuzasidan xalqaro tajribani o'rganish.<br>Natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va asoslantirilgan takliflar tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | may-iyun | Sh. Yakubdjanova | Nodavlat notijorat tashkilotlarining hisobotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yil 1-yanvar holatiga NNTlarning 2270 tasi (28%) o'z binolariga ega emas. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'z binolariga ega emasligi ularning faoliyati samaradorligi va natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. | Nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini qo'llab-quvvatlash. | 2 |
| 39. | O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi hamda hududiy boshqarmalari huzuridagi komissiyalar faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish, natijasi bo'yicha taklif kiritish. | aprel | D. Umarov<br>F. Saliyev | Malaka komissiyalari faoliyatiga axborot-komunikatsiya vositalarining keng jalb qilinmaganligi, murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi fuqarolarning ortiqcha vaqt va mablag'larini sarf qilinishiga sabab bo'layotganligi, advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish tartib va qoidalari ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi bilan uyg'unlashmaganligi sababli mazkur munosabatlar bo'yicha mexanizmlarni takomillashtirish zarurati mavjud. | Malaka komissiyalari faoliyati takomillashtirilib, malaka komissiyalari faoliyatiga axborot-komunikatsiya vositalarini keng jalb qilinadi, malaka komissiyalarida murojaatlarni ko'rib chiqish soddalashtiriladi, fuqarolarning ortiqcha sarsongarchiligi oldi olinadi. | 2 |
| 40. | Notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi yuridik shaxslar birlashmalarini (assotsiatsiya, ittifoq va boshqa.) davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish. | aprel-may | Sh. Yakubdjanova | Bugungi kunda mamlakatda notijorat xususiyatiga ega tashkilotlarni tashkil etish yagona tartib asosida amalga oshirilmayotganligi sababli turli yondashuvlarga olib kelmoqda, bu esa NNT sohasida yagona siyosatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. | Notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi yuridik shaxslar birlashmalarini (assotsiatsiya, ittifoq va boshqa.) tashkil etish bo'yicha yagona tartibni joriy qilish. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Natijasi bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma va asoslantirilgan takliflar tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | | | | | |
| 41. | “Xadichai Kubro” ayol-qizlar o‘rta maxsus islom bilim yurti hamda “Mir-Arab” o‘rta maxsus islom bilim yurti faoliyatini o‘rganish. Natijasi bo‘yicha tegishli ta’sir choralari ko‘rish. | aprel-iyun | Sh. Yakubdjanova | Mazkur diniy tashkilotining faoliyati oxirgi 3 yilda o‘rganilmaganligi sababli ushbu tadbir ish rejaga kiritilmoqda. | Diniy tashkilotlar faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish. Kelgusida qonunbuzilish holatlarini oldini olish. | 3 |
| 42. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga “e-qaror” elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 390-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | may | D. Umarov | Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hujjatlarini qabul qilishda mas’uliyatini oshirish, mazkur hujjatlarni e‘lon qilish mexanizmlari va tartibini takomillashtirish va boshqa protsessual jarayonlarni tartibga solish bo‘yicha qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf qilish zarurati yuzaga kelmoqda. | “E-qaror” elektron tizimining ishlash tartibi va mexanizmini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish orqali qonun ustuvorligini ta’minlash. | 2 |
| 43. | “Inson va qonun” gazetasida “BONG” tanqidiy sahifasini tashkil etish. Unda tahririyatga kelayotgan tanqidiy maktublarni chop etish. | yanvar-iyun | F. Tojiyev | Joylarda ayrim mutasaddilarning mas’uliyatsizligi tufayli haq-huquqlari poymol qilingan fuqarolardan ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda. | Gazetaning auditoriyasini kengaytirish va fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish. | 4 |
| 44. | Xalqaro shartnomalar loyihalariga yuridik xulosa berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | iyun | A.Saydaxmedov | Tahlil natijasiga ko‘ra, xalqaro shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish, kelishish hamda ularga yuridik xulosa berish jarayonlari an’anaviy usulda amalga oshirilib kelinmoqda.<br>Shu bois, ushbu soha to‘liq tahlil qilinib, unga AKTni joriy qilish orqali loyihalarni ishlab chiqish va kelishish hamda yuridik xulosa taqdim etish jarayonlarni soddalashtirish zaruriyati mavjud. | Xalqaro shartnomalar loyihalarini ishlab chiqish, kelishish hamda ularga yuridik xulosa berish jarayonlariga AKTni joriy qilish orqali sohani takomillashtirish. | 2 |
| 45. | “Inson va qonun” gazetasida “Adabiy ayvon” (“Adabiy xiyobon”) (dedektiv qisqa hikoyalar sahifasini) muntazam berib borish. | yanvar-iyun | F. Tojiyev | Fuqarolarga huquqbuzarlik va jinoyatlarning salbiy oqibatlarini badiiy asarlar talqinida tushuntirish. | Yosh ijodkorlarni ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijodiy faoliyatiga ko‘maklashish. | 4 |
| 46. | “O‘zbekiston – siyosiy-huquqiy sohadagi xalqaro reyting va indekslar” nomli to‘plam chop etish. | iyun | D. Sufiyeva | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoni bilan belgilangan siyosiy-huquqiy sohaga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslarda | Davlat organlari va tashkilotlarining siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarni tuzuvchi xalqaro va | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | O‘zbekiston Respublikasining o‘rniga taalluqli ochiq ma’lumotlar yagona manbada jamlanmaganligi bois bu borada davlat organlari va tashkilotlari, tadqiqot institutlarining xabardorligini oshirish lozim. | xorijiy tashkilotlarni O‘zbekistonda tegishli sohalarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari haqida axborotlardan xabardor qilish. | |
| 47. | Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan xizmat ko‘rsatadigan tashkilotlar sonini ko‘paytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish. | iyun | D. Umarov | Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyati natijasida davlat organlari va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalari faoliyatida shaffoflik ta’minlanib, noqonuniy hujjatlar qabul qilish holatlari va mazkur masala bo‘yicha murojaatlar keskin kamaygan. | Davlat organlar va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalari tomonidan o‘z ish faoliyatlarini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash. | 2 |
| 48. | Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz)dan ro‘yxatdan o‘tishni takomillashtirish, shaxsiy kabinetdan foydalanish imkoniyatini yanada oshirish, foydalanuvchilarga normativ-huquqiy hujjat qo‘llanishida muammolar va takliflar bo‘yicha qayta aloqa (fadeback) qoldirish imkonini yaratish. | iyun | F. Tojiyev | Milliy bazadan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar uchun shaxsiy kabinetdan foydalanish imkoniyatlari yetarli emas. | Milliy bazadan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar uchun shaxsiy kabinet orqali foydalanish imkoniyati yanada kengaytiriladi, qulay ko‘rinishga keltiriladi. | 4 |
| 49. | “Legal Tech” axborot tizimini SEO optimizatsiya talablariga muvofiq ko‘rinishga keltirish va xalqaro qidiruv tizimlaridagi reytingini yaxshilash. | iyun | F. Tojiyev | Axborot tizimidagi mavjud hujjat namunalarini Xalqaro qidiruv tizimlari orqali kalit so‘zlaridan foydalangan holda izlash natijalari qoniqarli darajada emas. | Axborot tizimini SEO optimizatsiya qilish natijasida foydalanuvchilar auditoriyasi yanada oshiriladi. Bundan tashqari, doimiy yangilanib borilayotgan hamda bepul taqdim qilinayotgan hujjat namunalarini oson topishga imkon yaratadi. | 4 |
| 50. | Jurnalist va blogerlarni intellektual mulk sohasida xabardorligini oshirish hamda bu sohadagi o‘zgarishlarni mediamateriallar orqali aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish maqsadida xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida trening tashkil etish. | iyun | S.Urinbayeva<br>F.Tojiyev<br>S.Qilichev<br>D.Allanazarov | Ijtimoiy tarmoqlarda normativ-huquqiy hujjatlarni noto‘g‘ri talqin qilish holatlari uchrab turibdi. | Ijtimoiy tarmoqlarda normativ huquqiy hujjatlarni noto‘g‘ri talqin qilish holatlarini olish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **V. DAVLAT XIZMATLARI HAMDA MA’MURIY TARTIB-TAOMILLARNI RIVOJLANTIRISH VA MONITORINGINI YURITISH SOHASIDA** | | | | | | |
| 51. | O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalari tomonidan:<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;<br>qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi;<br>huquqni qo‘llash (shu jumladan, inson huquqlari va intellektual mulk sohasida) amaliyoti;<br>ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati;<br>tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyatini;<br>huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish. | fevral-mart | U.Sodikov<br>O‘.Nazarov<br>N.Rustambekov<br>N.Tillyayev<br>N.Muhammadiyev<br>J.Niyazov<br>(Ma’muriy)<br>U.Abdullayev<br>M.Nazarov<br>R.Davidova<br>D.Xalilov<br>F.Saliyev<br>D.Umarov<br>S.Qilichev<br>Sh.Yuldasheva<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o‘rganish va monitoring o‘tkazilmagan.<br>Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi sohasida ruxsat berish hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatilishi bo‘yicha shikoyatlar ko‘plab kelib tushmoqda. | Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi sohasida ruxsat berish hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatilishini yetarli darajada nazoratga olish bo‘yicha qonuniylikni ta’minlash. | 3 |
| 52. | Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimida:<br>boshqa vakolatli davlat organlari foydalanishlari uchun alohida modul yaratish;<br>tadbirkorlik subyektlarining shaxsiy kabinetlarida o‘zlariga tegishli litsenziya va ruxsatnomalarni aks ettirish. | mart | U.Abdullayev<br>K.Xo‘jayev | Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish faoliyatini monitoring qiluvchi vakolatli organlarga axborot tizimidan foydalanish imkoniyatini yaratish normativ-hujjatlarda belgilangan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun tizim imkoniyatlarini oshirish zarurati mavjud. | Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini yaratish hamda tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda qulaylik yaratish. | 4 |
| 53. | Jismoniy shaxsni identifikatsiya qilishning mavjud texnologiyalarini (Face ID) o‘rganish va sohada texnologiyadan foydalanish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish. | mart | U.Abdullayev,<br>Personallashtirish agentligi | Davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishda shaxsni biometrik identifikatsiya qilish vositalarini joriy etilmagan. | Davlat xizmatlaridan foydalanuvchilarga qo‘shimcha qulaylik yaratib, Face-ID texnologiyasi shaxsni ishonchli indentifikatsiya qilish imkonini beradi. Onlyan xizmat oluvchilar sonini oshishiga erishiladi. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 54. | Respublika miqyosida tadbirkorlik subyektlari – yuridik va jismoniy shaxslarni qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda muddat buzish, asossiz rad etish va ortiqcha hujjat talab etish holatlarini monitoring tartibida o‘rganish hamda natijasi yuzasidan tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash. | mart | N.Parpixo‘jayev, hududiy adliya organlari rahbarlari | Davlat xizmatlari markazlari orasida tadbirkorlik subyektlarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida ular faoliyatini doimiy nazorat qilish lozim.<br>Davlat xizmatlari markazlari tomonidan rad etilgan onlayn arizalar o‘rganilganda ayrim holatlarda asossiz rad etish holatlari aniqlangan. | Tadbirkorlik subyektlarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda qonunbuzilishi holatlari oldi olinadi hamda kamayadi. | 2 |
| 55. | Quyidagi sohalarda davlat xizmatlari ko‘rsatishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish (birlashtirish) va ularning sonini maqbullashtirish:<br>jismoniy shaxslarga turli ma’lumotnomalar berish;<br>malaka sertifikatlarini berish.<br>Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | mart | J.Niyazov | Hozirda 30 ga yaqin ma’lumotnomalar va 40 dan ortiq turli sohalarda jismoniy shaxslarga turli malaka sertifikatlarini beriladi. Mazkur malaka sertifikatlarini berish tartibotlari amalda o‘xshash bo‘lib, ularni yaxlit hujjatda tizimlashtirish zarurati mavjud. | Jismoniy shaxslarga turli malaka sertifikatlarini berish tartibotlarini tizimlashtirish evaziga jismoniy shaxslarga ushbu sohada davlat xizmatlarini ko‘rsatish takomillashtiriladi. | 4 |
| 56. | Fuqaroning murojaatini kutmasdan bir vaqtning o‘zida bir nechta xizmatlarni ko‘rsatish (proaktiv xizmatlar) tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | may | J.Niyazov, N.Parpixo‘jayev, U.Abdullayev | Bugungi kunda aholi tomonidan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ayrim xizmatlardan foydalanish uchun bir nechta davlat organlariga murojaat qilinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning vaqti va mablag‘ining sarflanishidan tashqari, turli xil korrupsion holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. | Fuqaro uchun zarur bo‘lgan xizmatlarni bir vaqtda ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish natijasida aholining sarflanadigan vaqti va mablag‘ini tejash. | 4 |
| 57. | “Yuridik yordam” axborot tizimini takomillashtirish. | iyun | K.Xo‘jayev, D.Umarov | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–263-son qarorida 2023-yil 1-yanvardan fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari faoliyati bilan integratsiya qilishni | “Yuridik yordam” axborot tizimini “Elektron hukumat” tizimiga integratsiya qilgan holda advokatlar tomonidan zarur ma’lumotlarni mustaqil olish imkoniyatlarini yaratish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | nazarda tutuvchi “Yuridik yordam” axborot tizimini ishga tushirish belgilangan. Qarorda axborot tizimini sud, tergov va boshqa bir qator davlat idoralari bilan integratsiya qilinishi belgilangan. Tizim joriy qilinganidan so‘ng kelib tushgan takliflar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. | | |
| 58. | “Virtual adliya” tizimini boshqa elektron (hujjatlar almashish) tizimlariga integratsiya qilish va hujjatlar almashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif kiritish. | iyun | K.Xo‘jayev | Adliya vazirligi tizimida hozirgi kunda bir nechta elektron tizimlar mavjud bo‘lib, ularni yagona tizimga birlashtirish lozim. | Adliya vazirligi tizimida foydalanilayotgan barcha axborot tizimlarini yagona nuqtadan turib foydalanish, xodimlarning ish unumdorligini oshirish. | 4 |
| 59. | Fuqaroning vaqtincha turgan joyi bo‘yicha hisobga qo‘yish davlat xizmatini takomillashtirish orqali ijaraga qo‘yilgan shaxs ma’lumotlarini Soliq qo‘mitasining axborot tizimi orqali tekshirish orqali yo‘lga qo‘yish. | iyun | U.Abdullayev | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-apreldagi PF-5984-son Farmoni<br>O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-dekabrdagi “Fuqarolarni doimiy yashash va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 785-son qarori. | Davlat xizmatlari markazlari hamda YIDXP orqali ko‘rsatilayotgan vaqtincha turgan joyi bo'yicha hisobga qo‘yish davlat xizmatida soliq xizmati organlarida hisobga olingan ijara shartnomasi haqida ma’lumot integratsiya yo‘li bilan olish orqali ijarachini ro‘yxatga qo‘yish. | 4 |
| | **VI. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA** | | | | | |
| 60. | DXM mutaxassislari uchun intellektual mulk obyekti tovar belgisining muhofazasi uchun topshiriladigan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi bo‘yicha seminar mashg‘ulotlar tashkillashtirish. | fevral-iyun | B.Sagdullayev | Tahlil natijasiga ko‘ra, 2022-yil davomida intellektual mulk obyekti tovar belgisiga muhofaza olish uchun 6764 talabnomalar topshirilgan, shundan 1266 talabnomalar boyicha topshirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar tufayli rasmiy ekspertiza jarayonida so‘rovnomalar yuborilgan. Talabnomalarning aksariyati DXM xodimlari yordamida topshirilgan. | Intellektual mulk obyekti tovar belgisi bo‘yicha muhofaza olish uchun topshirilayotgan talabnomalar sifatini oshirish va ortiqcha qog‘ozbozlikka chek qo‘yish, rasmiy ekspertiza jarayonida ijobiy natijalik qarorlarning miqdorini ko‘paytirishga erishish. | 4 |
| 61. | Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisiga doir guvohnoma olish, Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish bilan | mart | D. Allanazarov | 2022-yilning o‘tgan davrida Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisiga doir guvohnoma olish, EHM uchun dasturlar yoki ma’lumotlar bazalariga rasmiy | Ushbu davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarni avtomatlashtirish orqali xizmat | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | bog‘liq jarayonlarni to‘liq 24/7 rejimida elektron shaklga o‘tkazish.<br>Bunda, jumladan quyidagilar nazarda tutiladi:<br>hujjatlarni onlayn qabul qilish; talabnomalarni ko‘rib chiqish jarayonining har bir bosqichi to‘g‘risida talabnoma beruvchilarni SMS orqali xabardor qilish;<br>ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlari bilan bog‘liq yozishmalarni elektron raqamli imzo yoki QR-kod (matriks-shtrixli kod) vositasi orqali imzolagan holda yuborish va muhofaza hujjatlarini berish | | | ro‘yxatdan o‘tkazish barcha Ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan intellektual mulk obyektlarini 85% (9 500 ta)ni tashkil etmoqda. Bu o‘z navbati xizmat ko‘rsatishda qo‘shimcha inson resurslariga talab oshishiga olib kelmoqda. | ko‘rsatishda inson resurslarini tejamkorligiga erishish. | |
| 62. | Kontrafakt asarlar katalogini doimiy yangilab boruvchi elektron shaklli QR-kod orqali ma’lumotlar olish imkoniyatini yaratish hamda ushbu QR-kodni respublikaning barcha kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdo majmualari va rastalarida joylashtirish. | mart | B. Ruziyev<br>D. Allanazarov<br>D. Xudjanov<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Olib borilgan kuzatuv tadbirilar natijalariga ko‘ra kitob savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdo majmua va rastalarida sotuvchilar hamda xaridorlarda kontrafakt asar nusxasi deganda noto‘g‘ri fikr shakllangan bo‘lib, ular kontrafakt deganda faqatgina kitob ishlab chiqarish standartlariga javob bermagan kitoblarni tushunishlari ma’lum bo‘ldi. | Katalogni joriy etish sotuvchilar hamda xaridorlarga kontrafakt mahsulotlar to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. | 4 |
| 63. | Xorijiy davlatlardagi intellektual mulk obyektlarini garovga qo‘yish amaliyotini o‘rganish, axborot-tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | mart | S. Qilichev<br>D. Allanazarov | Rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritib kelayotgan kredit tashkilotlari tomonidan intellektual mulk obyektlarini garov shartnomasi predmeti sifatida qabul qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, intellektual mulk obyektlari garov sifatida ba’zi rivojlangan davlatlarning banklarida 50% ni tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasiga binoan har qanday mol-mulk garov narsasi bo‘lishi mumkin. Biroq mamlakatimizda bunday amaliyotni qo‘llash bilan bog‘liq mexanizm yo‘lga qo‘yilmagan. | Xalqaro tajribani inobatga olgan holda intellektual mulk obyektlarini boshqa obyektlar sifatida o‘rnini mustahkamlash. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 64. | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT) o'rtasida **"WIPO Alert"** maxsus himoyalangan onlayn platformasidan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida **Anglashuv memarandumi** *(Letter of Understanding)* imzolash masalasini o'rganib chiqish va Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | aprel | B. Ruziyev<br>S. Qilichev | Hozirgi globallashuv sharoitida butun dunyo miqyosida axborot-telekommunikatsiya sohasi tobora rivojlanib mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari aholi e'tiboriga internet orqali huquq egalarining ruxsatisiz yetkazilmoqda.<br>Shuni alohida ta'kidlash joizki, raqamli muhitning texnik imkoniyatlari va afzalliklaridan noto'g'ri foydalanish holatlari ham kun sayin ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. | Respublikadagi reklama agentliklari va tadbirkorlarga **qaroqchi saytlar to'g'risidagi ma'lumotlar**ga ega bo'lish imkoniyatini yaratib, noqonuniy faoliyat olib boradigan veb-saytlarga mahsulotlarni reklama qilish uchun joylashtirishni **oldini olish**ga va tadbirkorlik subyektning jahon hamjamiyatidagi obro'sini saqlab qolishga xizmat qilish. | 2 |
| 65. | Davlatning tezlashtirilgan patent ish yurituvi (Patent Prosecution Highway) dasturiga a'zo bo'lishi va bunday mexanizmni amaliyotga joriy qilish istiqbollarini o'rganish, axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | aprel | S. Qilichev<br>B. Sagdullayev<br>D. Allanazarov | Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashining 2022-yil 14-apreldagi yig'ilishining 8-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan Ijtimoiy-iqtisodiy sohaga oid ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash bo'yicha 2022-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasining15-bandida O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk sohasiga oid ma'lumotlarini "International IP Index" hisobotida aks ettirilishini ta'minlash choralarini ko'rish orqali AQSh "Chamber of Commerce" xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.<br>Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida "International IP Index" metodologiyasi va hisoboti o'rganilganda, davlatlardagi intellektual mulk sohasining rivojlanganlik darajasini baholashda intellektual mulk sohasi bo'yicha vakolatli organning Patent Prosecution Highway dasturiga a'zolik masalasi e'tiborga olinishi aniqlandi. | "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi Patent Prosecution Highway dasturiga a'zo bo'lishining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash. | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 66. | Sanoat namunasiga patent berish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglament loyihasini ishlab chiqish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | aprel | B. Sagdullayev | Tahlil natijasiga ko‘ra, Sanoat namunasiga O‘zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish qoidalarini 2004-yilda qabul qilingan. | Sanoat namunasiga huquqiy muhofaza qilishga taalluqli me‘yoriy hujjatni takomillashtirish orqali talabnoma topshirish jarayonini osonlashtirish. | 2 |
| 67. | Vakolatli organ tomonidan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasini berish jarayonida intellektual mulk obyektlariga (tovar belgisi va sanoat namunasiga) bo‘lgan huquqlarga rioya etilganligini tekshirish amaliyotini o‘rganish. | may | D. Xudjanov | Sanoat mulki obyektlariga oid huquqbuzarliklar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish davomida ko‘plab kontrafakt dori mahsulotlariga sertifikatlashtirish vakolatiga ega idoralar tomonidan tegishli sertifikatlar berilganligi holatlari ma’lum bo‘lmoqda.<br>Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ–221-son qarori 3-bandiga muvofiq 2022-yil 1-avgustdan Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, sifat nazorati, standartlashtirish va sertifikatlashtirishni amalga oshiradigan ishchi organi tomonidan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasini berish jarayonida intellektual mulk obyektlariga (tovar belgisi va sanoat namunasiga) bo‘lgan huquqlarga rioya etilganligini tekshirish va (yoki) o‘rganish lozimligi belgilangan.<br>Shu bois, yuqorida keltirilgan tashkilotlar tomonidan sertifikatlashtirish jarayonida intellektual mulk huquqlariga rioya etilishi amaliyotini o‘rganish hamda sohaga oid aniqlangan muammolar yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berish lozim. | Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalarning kontrafakt nusxalarining iste’molchilarga yetib borishidan avval realizatsiyasini oldini olish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 68. | Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo davlatlarda mavjud tovar belgilaridan noqonuniy tarzda foydalanilib, ishlab chiqarilgan kontrafakt mahsulotlarni to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish amaliyotini o'rganish, axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish | may | S. Qilichev<br>D. Xudjanov | Milliy qonunchilikning ayrim normalari Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimning 46-moddasi talablariga nomuvofiqligi aniqlandi. | Milliy qonunchilikni TRIPS talablariga muvofiqlashtirish. | 2 |
| 69. | Sanoat mulki obyektlariga bo'lgan huquqlarni buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar bo'yicha nazorat xaridini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. | iyun | D. Xudjanov | Amaliyotda kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarilayotgan va sotilayotganligi holati faktini tasdiqlash uchun nazorat xaridini amalga oshirish lozim bo'ladi.<br>Nazorat xaridi natijasida sotib olingan kontrafakt mahsulot mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqilib, sotilganlik faktini tasdiqlovchi chek (patta)si bilan birgalikda kontrafakt mahsulotni sotish va ishlab chiqarish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etilgan deb topilib, tegishli sudlarga yuboriladi. Biroq, amaliyotda nazorat xaridini amalga oshirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat mavjud emasligi sababli juda ko'plab huquqbuzarliklar latentligicha (aniqlanmasdan) qolib ketmoqda.<br>Shu bois, nazorat xaridi bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish lozim. | Intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar yuzasidan nazorat xaridini tashkillashtirish va amalga oshirish tartibining huquqiy asoslari yaratiladi va bu orqali kontrafakt mahsulotlarni sotish va savdoga taklif etish bilan bog'liq huquqbuzarliklarni aniqlash jadallashadi. | 2 |
| 70. | O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining mahsulotlarni sertifikatlashtirish, muvofiqlik sertifikatlari va belgilarini berish jarayonida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilish amaliyotini o'rganish. | iyun | D. Xudjanov | Sanoat mulki obyektlariga oid huquqbuzarliklar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish davomida ko'plab kontrafakt mahsulotlarga sertifikatlashtirish vakolatiga ega idoralar tomonidan tegishli sertifikatlar berilganligi holatlari ma'lum bo'lmoqda.<br>Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ–221-son qarori 3-bandiga muvofiq sertifikatsiyalash bilan shug'ullanuvchi organlar tomonidan respublikada ishlab | Mahsulotlarning kontrafakt nusxalarini iste'molchilarga yetib borishidan avval realizatsiyasini oldini olish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | chiqarilayotgan, realizatsiya qilinayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayonida ularda qo'llanilgan nom, qadoqlar va boshqa rekvizitlarda intellektual mulk obyektlariga (tovar belgisi, geografik ko'rsatkich, tovar kelib chiqqan joy nomi va sanoat namunasiga) bo'lgan huquqlarni o'rganish va tekshirish lozimligi belgilangan.<br>Shu bois, yuqorida keltirilgan tashkilotlar tomonidan sertifikatlashtirish jarayonida intellektual mulk huquqlariga rioya etilishi amaliyotini o'rganish lozim. | | |
| 71. | Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali mualliflik va turdosh huquqlar sohasida aholi uchun foydali huquqiy axborotlarni qiziqarli va tezkor yetkazish bo'yicha huquqiy targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish. | iyun | B. Ruziyev<br>S. Urinbayeva<br>Sh. Yuldasheva<br>hududiy adliya organlari rahbarlari | Keyingi vaqtlarda aholi tomonidan axborot asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilinayotganligi sababli mazkur vositalar orqali huquqiy targ'ibot tadbirlarini ko'paytirish zarurati mavjud. | Aholining mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirish. | 4 |
| **VII. ARXIV SOHASIDA** | | | | | | |
| 72. | Arxiv faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.. | mart | "O'zarxiv" agentligi | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi PF-6218-son Farmoni | Sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali jarayonlarni soddalashtirish, korrupsion omili mavjud, bir-birini takrorlaydigan va zid normalarni bartaraf etish hamda byurokratik ma'muriy to'siqlarni qisqartirish. | 2 |
| 73. | Hujjatlarni saqlash muddatlari ko'rsatilgan namunaviy ro'yxatini idoraviy normativ-huquqiy hujjat sifatida ishlab chiqish va tasdiqlash. | iyun | "O'zarxiv" agentligi | Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at Majlisi har chorakda o'tkazilib, unda asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi. | **1 000 mingdan** ortiq hujjatlar turlari va saqlash muddatlari qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish. | 2 |

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar Adliya vazirligining mavjud resurslari, moliyaviy mablag'lari va moddiy-teknik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil
I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejasiga ilova

## Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo‘nalishlari va mezonlari jadvali

| Yo‘nalish raqami | Baholanayotgan yo‘nalish nomi | Yo‘nalishning baholash mezonlari | Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko‘rsatkichlar | Mezon bo‘yicha maksimal bali | Yo‘nalish bali |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | **Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tahlil qilish** | Faoliyati baholanganligi | *Adliya organlari soni bilan baholangan Adliya organlar soni* | 50 | 100 |
| | | Tizimli tahlil amalga oshirilganligi | *tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni* | 25 | |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 25 | |
| 2. | **Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma’lumot va boshqa takliflar** | Taklifning asoslanganligi | *loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari* | 25 | 100 |
| | | Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi | *Loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi* | 25 | |
| | | Taklif bo‘yicha asoslantirishda taklif amaliyotga kiritilgandan so‘ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi | *Loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija (foiz, miqdor va boshqalarda) nazarda tutilganligi* | 25 | |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 25 | |
| 3. | **Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o‘rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta’sir choralar ko‘rish** | O‘rganish qamrovi | *savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo‘yicha asoslar soni* | 20 | 100 |
| | | Qonunbuzilishning asoslanganligi | *qonunbuzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni* | 20 | |
| | | Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi | *bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni* | 20 | |
| | | Javobgarlik choralari qo‘llanilishi | *Javobgarlik tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni* | 20 | |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 20 | |
| 4. | **Ko‘rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi** | Ko‘rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi | *Normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko‘rsatkichlar bilan bajarilgan ko‘rsatkichlar miqdori* | 75 | 100 |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 25 | |